

O‘ZBEK DOSTONCHILIK SAN’ATI: AN’ANA, IJRO VA ESTETIK TARBIYA



Zafar Hayitov

Yunus Rajabiy nomidagi

O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

“Doston ijrochiligi” kafedrasida dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20541461>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek dostonchilik san’atining tarixiy-madaniy ahamiyati, baxshichilik ijrochilik an’analari, dostonlarning musiqiy va badiiy xususiyatlari hamda ularning yosh avlod estetik tarbiyasidagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, baxshi ijrochiligining o‘ziga xos uslublari, doston ijrosida musiqaning ahamiyati, terma va nag‘malarning badiiy qiymati yoritilgan. Maqolada zamonaviy madaniy jarayonlar ta’sirida baxshichilik san’atida yuz berayotgan o‘zgarishlar, an’anaviy ijro uslublarining saqlanishi va rivojlanish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, bo‘lajak mutaxassislarda doston ijrochiligi orqali milliy qadriyatlarga hurmat, estetik did va ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Dostonchilik, baxshichilik san’ati, xalq og‘zaki ijodi, terma, nag‘ma, doston ijrochiligi, milliy musiqa, estetik tarbiya, badiiy did, baxshi, folklor, musiqiy meros, milliy qadriyatlar, ijro uslubi, an’anaviy san’at.

Abstract. This article analyzes the historical and cultural significance of the Uzbek epic storytelling art (dostonchilik), the performance traditions of baxshi singers, and the musical and artistic features of epics, as well as their role in shaping the aesthetic education of the younger generation. It also highlights the unique performance styles of baxshi artists, the importance of music in epic performance, and the artistic value of terma and naghma. Special attention is given to the transformations occurring in baxshi performance traditions under the influence of modern cultural processes, as well as issues related to the preservation and development of traditional performance styles. Furthermore, the article reveals the pedagogical importance of forming respect for national values, aesthetic taste, and creative skills in future specialists through epic performance.

Keywords: Dostonchilik, baxshi art, oral folk literature, terma, naghma, epic performance, national music, aesthetic education, artistic taste, baxshi, folklore, musical heritage, national values, performance style, traditional art.

Doston o‘zbek xalq og‘zaki ijodining yirik epik janri bo‘lib, o‘zining mazmuni, badiiy shakli, ijro uslubi va ichki qonuniyatlari bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Xalq dostonlarida epik voqealar asosan nasriy bayon orqali ifodalansa, lirik kechinmalar she’riy misralar hamda musiqa vositasida yoritiladi. Shu bois dostonchilik san’ati xalqning ko‘p asrlik tafakkuri, dunyoqarashi, ma’naviyati va estetik qarashlarini o‘zida mujassam etgan noyob madaniy meros hisoblanadi.

Dostonlarda xalqning tarixiy xotirasi, turmush tarzi, urf-odatlarini, orzu-intilishlari, qahramonlik va vatanparvarlik g‘oyalari badiiy ifoda etiladi. Ularda yaxshilik va yomonlik

kurashi, insoniy fazilatlar, muhabbat, sadoqat, jasorat kabi mavzular keng yoritiladi. Ayniqsa, she'riy parchalar, termalar, aytim va nag'malar orqali xalqning voqelikka bo'lgan hissiy munosabati chuqur va ta'sirchan tarzda namoyon bo'ladi.

Doston ijrochiligi baxshichilik san'ati bilan chambarchas bog'liqdir. Baxshi nafaqat ijrochi, balki sozanda, xonanda, shoir, aktyor va badihago'y san'atkordir. U doston voqealarini tinglovchilarga jonli va ta'sirchan yetkazishda katta mahorat namoyon etadi. Baxshi tinglovchilar bilan bevosita muloqotga kirishib, asarni vaziyatga qarab boyitadi, ayrim o'rinlarini badihiy tarzda kengaytiradi. Shu sababli baxshichilikda ijrochining individual iste'dodi va ijodiy yondashuvi muhim ahamiyatga ega.

Doston ijrosida musiqa asosiy o'rin tutadi. Dostonlarning she'riy qismlari do'mbira, qo'biz kabi milliy cholg'ular jo'rligida kuylanadi. Xorazm dostonchiligida esa ansambl jo'rnavozligi keng qo'llaniladi. Har bir dostonda 15 tadan 30-40 tagacha turli kuy-ohanglar ishlatilishi mumkin. Ushbu kuylar "noma", "nola" yoki "baxshi kuyi" deb ataladi. Masalan, Surxondaryo dostonchilik an'alarida "Kelinoy nag'masi", "Og'ajonning nag'masi", "Boy keldi nag'masi", "Ot haydash nag'masi", "Bo'ri ulush" kabi kuylar mashhurdir [1.].

Doston termalari mazmuniga qarab turli ohang, ritm va shakllarda ijro etiladi. Natijada lirik, qayg'uli, quvnoq, ko'tarinki ruhdagi kuylar yuzaga keladi. Bu esa dostonlarning emotsional ta'sir kuchini oshirib, tinglovchining ruhiy olamiga chuqur kirib borishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan doston musiqasi xalqning estetik didini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

O'zbekiston baxshichilik maktablari o'ziga xos ijro uslublari bilan ajralib turadi. Surxondaryo-Qashqadaryo, Xorazm, Samarqand-Jizzax va Farg'ona vodiysi baxshichilik an'analari o'zining kuy tizimi, ovoz uslubi va ijro yo'llari bilan bir-biridan farq qiladi. Har bir hududning doston kuylash uslubi o'sha vohaning madaniy muhiti va shevasini o'zida aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasi xalq baxshilari orasida Shoberdi baxshi Boltayev, Qahhor baxshi Rahimov, Safar baxshi Shaydilov, Anvar baxshi Ismoilov, Shodmon baxshi Egamberdiyev, Baxshiqul baxshi Tog'ayev, Abdumurod baxshi Rahimov, Boyqo'chqor baxshi Ahmedov kabi san'atkorlar alohida o'rin tutadi. Shuningdek, bugungi kunda Panji baxshi Do'stmurodov, O'rol baxshi Rahimov, Ro'ziqul baxshi Boltayev, Zafar baxshi Hayitov, Ilhom baxshi Norov singari iste'dodli baxshilar yosh avlodni baxshichilik san'atiga qiziqtirish va an'analarni davom ettirish borasida samarali faoliyat olib bormoqdalar.

Bugungi globallashuv va zamonaviy madaniy jarayonlar baxshichilik san'atiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Dostonlarning sahnaviy talqinlari, televizion va internet orqali namoyish etilishi natijasida ijro usullarida muayyan o'zgarishlar yuz bermoqda. Ba'zi hududlarda an'anaviy jonli ijro susayib borayotgan bo'lsa-da, Janubiy O'zbekiston vohalarida baxshichilik san'ati hali ham faol yashab kelmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy madaniy muhit baxshilar ijodida mualliflik hissining kuchayishiga olib kelmoqda. Bu esa ayrim hollarda an'anaviy doston matnlariga o'zgartirishlar kiritilishiga, sun'iy va yasama variantlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Chunki baxshi ijrosi uning shaxsiy dunyoqarashi, xotirasi va ijtimoiy-madaniy muhit bilan chambarchas bog'liqdir.

Dostonchilik san'ati yosh avlodning estetik va badiiy didini tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Bo'lajak mutaxassislarni baxshichilik san'ati asosida tarbiyalash ularda milliy qadriyatlarga hurmat, badiiy tafakkur va ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Shu sababli oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida doston ijrochiligi bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni rivojlantirish muhimdir.

Talabalar doston ijrochiligida ovoz hosil qilish, nafasni to'g'ri ishlatish, artikulyatsiya, intonatsiya, registrlar bilan ishlash kabi ko'nikmalarni puxta egallashlari lozim. Shuningdek, ular hududiy ijro uslublari, sheva va lahjalarning o'ziga xos xususiyatlarini ham o'rganishlari zarur. Doston kuylashda sof intonatsiya, legato va stakkato usullaridan foydalanish, jo'rsiz va cholg'u jo'rligida kuylash malakalarini shakllantirish muhim hisoblanadi.

Doston ijrosini yaxshi o'zlashtira olmayotgan talabalar uchun maxsus mashqlar tashkil etish, murakkab parchalar ustida ishlash hamda tajribali baxshilar ijrosidagi audio va video yozuvlardan foydalanish samarali natija beradi. Internet tarmoqlari va zamonaviy texnologiyalar orqali baxshichilik namunalarini keng targ'ib qilish esa ushbu san'atning ommalashishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda xalq dostonlari milliy ma'naviy meros sifatida ilmiy tadqiq etilmoqda, nota yozuvlariga olinmoqda va yangi avlodga yetkazilmoqda. Doston nag'malarini yozib olish, ularni musiqiy jihatdan tahlil qilish va ta'lim jarayonida foydalanish baxshichilik san'atining yashovchanligini ta'minlashda muhim omillardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek dostonchilik san'ati xalqning tarixiy xotirasi, estetik tafakkuri va ma'naviy olamini o'zida mujassam etgan bebaho merosdir. Uni asrab-avaylash, ilmiy o'rganish, yosh avlodga yetkazish va zamonaviy talqinlarda rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Baxshichilik san'atining an'anaviy ijro usullarini saqlab qolish bilan birga, uni zamonaviy madaniy muhitga mos ravishda rivojlantirish milliy madaniyatimiz ravnaqi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hayitov Z. Doston ijrochiligi. –T.: 2025.
2. B.Matyaqubov. Doston ijrochiligini o'qitish uslubiyati, Toshkent. 2021.
3. AXMEDOVA, O. O'ZBEK MAROSIM-UDUMLARINING ETNOHUDUDIIY XUSUSIYATLARI.
4. Ахмедова, О. М. (2010). Освещение фольклорных религиозных мотивов в средствах массовой информации (на примере печати и радиовещания Узбекистана). *Филологические науки. Вопросы теории и практики*, (3), 35-38.
5. Avazova, M. E., & Axmedova, O. M. (2021). TOSHKENT VILOYAT OHANGARON TUMANI YOR YOR QO'SHIQLARINING O'ZIGA XOS POETIKASI. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 196-201.
6. Akhmedova, A. (2021). Historical syncretism of folklore and media. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 335-340.
7. Ахмедова, О. (2026). Соотношение традиции и импровизации в узбекском народном эпосе: Interplay of Tradition and Improvisation in Uzbek Folk Epic. *Journal of national culture*, 2(1), 150-156.
8. Qodirov, M. R., & qizi Aliasqarova, S. R. (2025). THE IMPORTANCE OF SPEECH IN BAKSHI. *Bulletin news in New Science Society*, 2(6), 11-15.
9. Абдурахмонов, Р. Ю., & Курбанова, У. (2020). Хоразм фольклор ижрочилик санъати. *Oriental Art and Culture*, (II), 31-35.
10. Ахмедова, О. М. (2019). ЗНАНИЯ, ОБЫЧАИ И ОБРЯДЫ О ПРИРОДЕ И ВСЕЛЕННОЙ. *Наука и мир*, 2(4), 28-31.
11. Normurodovich, S. B. (2024). XORAZM DOSTON IJROCHILIGIDA NAG'MALARNING AHAMIYATI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(10), 133-136.

12. Safarov, B. N. (2023). DOSTON IJROCHILIGIDA SOZ VA SO‘Z UYG‘UNLIGI. *Oriental Art and Culture*, 4(1), 84-89.
13. Safarov, B. N. (2024). JANUBIY O‘ZBEKISTON DOSTON IJROCHILIGIDA NAG‘MALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI. *Inter education & global study*, (10), 529-535.
14. Normurodovich, S. B. (2024). JUFT TORLI CHOLG‘U SOZLARIDAGI O‘NG QO‘L ZARBLARINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI VA FARQLI JIHLTLARI. *Бюллетень педагогов нового Узбекистана*, 2(6), 75-79.
15. Safarov, B. (2022). Do‘mbira sozining tuzilishi, imkoniyatlari va doston ijrochiligida tutgan o‘rni. *Oriental Art and Culture*, 3(2), 793-798.
16. Mavlonbekova, N., & Abduraxmonov, R. (2022). TURKMAN BAXSHISI “SEVGI VA ISHQ MULKINING SHOHI” MULLANAFASNING “ZUXRA VA TOXIR” DOSTONI TAHLILI. *Oriental Art and Culture*, 3(4), 408-412.
17. Hayitov, Z. (2021). The place of drum instruments and songs in the art of Bakhshil. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 73-78.